

## SMTI va BMT NJQKB hamkorlikni mustahkamlashdan o'zaro manfaatdorlik bildirmoqda



Joriy yilning 26 yanvarida BMT Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi (BMT NJQKB) mintaqaviy vakolatxonasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Eldor Aripov va BMT NJQKBning mintaqaviy vakili Ashita Mittal bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda A.Mittal SMTI vakillariga o'z idorasining, birinchi navbatda, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda a'zo davlatlarga ko'maklashish borasidagi faoliyati haqida batafsil ma'lumot berdi.

Shu nuqtai nazardan, BMT NJQKB mintaqaviy boshqarmasi rahbari O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqada davlatlari o'rtasida o'zaro tushunish va ishonchni oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini olqishladi. Uning so'zlariga ko'ra, faqat birlashgan mintaqada umumiy tahdidlarga samarali qarshi tura oladi.

A.Mittal xonim giyohvandlik va jinoyatchilik muammolarini anglashni yaxshilash bo'yicha tahliliy ishlarni kuchaytirish, tezkor qarorlar qabul qilish uchun bilimlar bazasini kengaytirish, xavfsizlik muammolarining oldini olish bo'yicha samarali uzoq muddatli siyosatni shakllantirish muhimligiga alohida e'tibor qaratdi.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo davlatlarining tahliliy tuzilmalari bilan hamkorlikni har tomonlama mustahkamlash taklifi ilgari surildi.

Institut xodimlariga Markaziy Osiyo va Afg'oniston davlatlarida giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi va giyohvandlik vositalaridan foydalanish muammolarini ochib beruvchi mintaqaviy idora

tomonidan tayyorlangan axborot-tahliliy mahsulotlar hamda BMT Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasining Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun 2022-2025 yillarga mo'ljallangan mintaqaviy dasturi taqdim etildi.

SMTI direktori, o'z navbatida, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning eng dolzarb masalalari bo'yicha qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirishda hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha BMT Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi tashabbusini qo'llab-quvvatladi. Mintaqa davlatlarining ekspertlar forumi doirasida ushbu masalalar bo'yicha barcha Markaziy Osiyo davlatlarining tadqiqot resurslarini birlashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish tashabbusi bildirildi.

Uchrashuv davomida SMTI delegatsiyasiga 2023-yil may oyida ochilgan BMT Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha axborot markazi faoliyati bilan ham tanishtirildi. Markazning faoliyati giyohvandlik bilan bog'liq vaziyatni har tomonlama tahlil qilishga, giyohvand moddalar kontrabandasi, BMT NJQKBning Markaziy Osiyo mamlakatlari huquqni muhofaza qilish organlari bilan muvofiqlashtirishni kuchaytirishga, paydo bo'layotgan transchegaraviy tahdidlarga javob berish bo'yicha mintaqada ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaratilgan.

Uchrashuv yakunida mintaqaviy xavf va tahdidlarni monitoring qilish va tahlil qilish sohasida o'zaro hamkorlikning ikki tomonlama rejasini ishlab chiqish, ularning o'z vaqtida oldini olish va ularga barham berish bo'yicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha kelishuvga erishildi.

